O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi
Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi

SURXONDARYO VILOYATI AVTOMOBIL YO‘LLARI BOSH BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyati, Termiz shaxri, Olmazor ko’chasi, 42-uy. Tel: 0376 221 19-69
Email: surxondaryo@uzavtoyul.uz

№ 11-40/1658
«30» 06 2026-yil

“Suv ta`minoti va oqova suv ob`ektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompanyasi” UK Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i Z.Bo’tayorovga

Nusxasi: **Qumqurg‘on TYFK DM direktori U. Odinayevga**

Sizning 2026-yil 19-iyundagi 02-01-/41-sonli xatingiz xususida:

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi “2026-2028-yillarda O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’irisida”gi PQ-393-sonli qarori asosida “Qumqo‘rg‘on tumani “Joziba” mahallasi ichimlik suv tizimlarini qurish ob’yekti bo’yicha hududdan o‘tuvchi umumiy foydalanishdagi davlat ahamiyatga ega D161 “Darband q. - Boysun sh. - Elbayon q.” avtomobil yo‘lining 76.5-77.2-km qismidan suv quvurni 5 (besh) metr qoldirib suv quvurini yotqizish, uchun SHNQ 2.05.02-23 hamda Avtomobil yo‘llari to‘g‘risidagi qonun talablariga to‘liq amal qilish talab qilinadi.

T E X N I K SH A R T L A R

1. Umumiy foydalanishdagi davlat ahamiyatga ega D161 “Darband q. - Boysun sh. - Elbayon q.” avtomobil yo‘lining 76.5-77.2-km suv quvurini yo‘l chetining mustahkamlangan qismi (obochena) kromkadan kamida 5 (besh) metr qoldirib suv quvurini yotqizish uchun **Qumqurg‘on TYFK DM va IIB YXXB** vakillari xabardorligida o‘tkazilishi shart.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrdagi PQ-4545–sonli Yo‘l soxasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar tog‘risidagi qarorning 3-bandi, 3-xat boshida avtomobil yo‘lining qatnov qismlariga uzinasiga joylashgan muxandislik kommunikatsiyarining yangi tarmoqlarini loyihalashtirish va yotqizish taqiqlanadi, ularning avtomobil yo‘llari bilan ko‘ndalang kesishishi bundan mustasno deb belgilab qo‘yilgan.

3. Yo‘lga parallel ravishda quvurlar o‘tkazilgan taqdirda yo‘l chetining mustahkamlangan qismi (obochena)dan kromkaga 5 (besh) metr uzoqlikda suv quvurini yotqizishda qazishdan chiqqan tuproqlarni avtomobil yo‘l qatnov qismida tashlamaslik shart;

4. Ochik usulda yo‘l yoqasini qazib suv quvurini tamirlash uchun, avtomobil yo‘lida harakatlanayotgan transport vositalari va piyoda yo‘lovchilarni xavf–xatarsiz harakatlanishini ta’minlash, yo‘lning ushbu qismi uchun ajratuvchi tasmaning o‘ng va chap tomonidan (ob’ezd) qurilishi pano, ogohlantiruvchi yo‘l belgilari va nur qaytaruvchi lentalar to‘liq o‘rnatilishi shart.

5. Suv quvurlari avtomobil yo‘lning yo‘l chetining mustahkamlangan qismi (obochena)dan kromkaga 5 (besh) metr qoldirib suv quvurini yotqizishda uchun kamida 1 (bir) metr chuqurlikda yotqizilishi shart.

6. Yo‘lning ikki tomoniga qazish va montaj davomida avtomobil yo‘lida transport harakatiga xalaqit beradigan holat mavjudligi sababli harakatni tartibga solish uchun tuman YXXB dan ruxsat olinishi shart.

7. Qazish maydonida o‘rnatiladigan zarur yo‘l belgilari dislokatsiyasi tayyorlanib Viloyat YXX boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi hamda to‘liq o‘rnatilishi shart.

8. Tunda qurilish maydoni yoritilgan bo‘lishi va yo‘l belgilari nur qaytargich bo‘lishi shart.

9. Qurilish ishlari tugagunga qadar avtomobil yo‘lda sodir bo‘ladigan yo‘l transport hodisasi uchun javobgarlik quruvchi zimmasida bo‘ladi.

10. Ishlarni texnik shart asosida bajarilishini nazorat qilish uchun boshqarmaga ijara shartnomasi asosida xizmat ko‘rsatayotgan **Qumqurg‘on TYFK DM** direktori ogohligida bajarilishi shart.

11. Yuqoridagi ko‘rsatilgan texnik shartning biror bir bandlari talablariga to‘liq bajarilmasa ushbu texnik shart o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi va qurilish ishlari olib borilishi taqiqlanadi, bajaruvchi qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

12. Ushbu texnik shartning amal qilish muddati 6 (olti) oy.

Boshqarma boshlig‘i: **B.Ch.Xotamov**

Baj: N. Fayzudinov
Tel: 76-221-19-69